

ISTIQBOLDAGI REJA VA STRATEGIYALAR



Universitet rektori Sherzod Mustafakulov Innovatsion rivojlanish vaziri **Ibrohim Abdurahmonov**ni universitetni yaqin istiqbolda rivojlantirish strategiyasi, innovatsiyalar bilan bog'liq rejalar, o'quv binolari va Students Hostellarda talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishtirdi.

Uchrashuvda universitetni rivojlantirish, istiqbolli loyiha va innovatsion g'oyalari bilan ishlash, talabalar o'rtasida startup g'oyalarni ishlab chiqish va yanada rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berib o'tildi.

Tashrif davomida Innovatsion rivojlanish vazirligi va Qo'qon universiteti o'rtasida o'zaro hamkorlik istiqbollari xususida muzokaralar bo'lib o'tdi.

Kelgusida biznes inkubator va akselerator xizmatlarini joriy etish, talabalar uchun maxsus innovatsion laboratoriyalarni tashkil etish, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi va Qo'qon shahar hokimligi bilan uzviy hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan ishlarni amalga oshirish bo'yicha kelishuv imzolandi.



Finlyandiyaning O'zbekistondagi faxriy konsuli, Qo'qon universitetining xalqaro eksperti Alisher Jo'rayev Qo'qon universitetiga tashrif buyurdi

Xalqaro ekspert ishtirokida "Finlyandiya ta'lim tizimi: hamkorlik imkoniyatlari va istiqbol-lari" mavzusida seminar-trening o'tkazildi. Universitet rektori Sherzod Mustafakulov ishtirokchilarni nufuzli mehmonning samarali faoliyati bilan tanishtirdi.

Alisher Jo'rayev dunyoning eng baxtli mamlakatlari reytingida yetakchi bo'lgan Finlyandiya tarixi, aholisi va boshqa o'ziga xos qiziqarli jihatlari haqida ma'lumotlar berdi.

Finlyandiya ta'lim tizimi, ya'ni o'quvchilar va talabalarga puxta bilim berish bilan birga ularga baxt va zavq bag'ishlash ustuvor hisoblangan, ma'lum ma'noda ta'lim oluvchilar tomonidan boshqariladigan 9 yillik maktab, gimnaziya, litsey, professional kollejlari va an'anaviy hamda amaliy fanlar universitetlari xususida keng ma'lumotlar berdi.

Talabalarining ingliz tilini bilish darajasi sinallmoqda...

Universitetning 1-2-kurslarda ta'lim olayotgan til bilish darajasi yuqori 30 nafar talabasi "IELTS MOCK TEST" imtihonlarida ishtirok etdilar. Ularning ingliz tilida gapirish, tinglash, o'qish va yozish qobiliyatlari sinovdan o'tkazildi.

Mazkur test talabalarining o'z imkoniyatlarini baholab olishlari uchun o'ziga xos tajriba



vazifasini o'tadi. 1-o'rinni qo'lga kiritgan talabaga IELTS imtihoniga ro'yxatdan o'tish uchun talab qilinadigan to'lovni amalga oshirishda imtiyoz berildi.

Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasini ta'minlash, talabalarining amaliyotini tashkil etishda innovatsion va korporativ hamkorlikni amalga oshirish maqsadida universitetning real sektor ishtirokchilari bilan o'zaro manfaatli aloqalari kengaytirilayapti.

Universitet va "Glorious business" MChJ rahbari, AZXX brendi asoschisi **Vohid Ahmedov** o'rtasida innovatsion-korporativ hamkorlik shartnomasi

imzolandi va har ikki tomonning ilmiy salohiyati va amaliy tajribalaridan istiqbolli maqsadlarda samarali foydalanishga kelishib olindi.

Shuningdek, Qo'qon universiteti rektori Sherzod Mustafakulov va "Yaproq Eco textile" MChJ rahbari **Ilhom Madaminov** o'rtasida talabalarining o'zaro manfaatli amaliyotini tashkil etishda innovatsion va korporativ hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi.



XUSHXABAR



Qo'qon universiteti - "Tashabbus-2021" tanlovi g'oliblari safida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun an'anaviy tarzda har yili o'tkazib kelina-yotgan "Tashabbus-2021" ko'rik-tanlovining Farg'ona viloyati bosqichi bo'lib o'tdi.

Tanlovda hunarmandlar, xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish va sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar o'zaro bellashdilar.

Qo'qon universiteti tanlovda "Xizmat ko'rsatish sohasida yilning eng yaxshi tadbirkori" nominatsiyasida 3-o'rinni qo'lga kiritdi va sovrindorlar safidan joy egalladi.



UNIVERSITET Solnomasi



No3

www.kokanduni.uz

HAR CHORAKDA BIR MARTA CHOP ETILADI

2021-yil, 1-iyul

Qo'qon universiteti "YIL BRENDI-2020" mukofoti g'olibiga aylandi!

"Milliy marketing markazi" korxonalar uyushmasining "Yil brendi" mukofoti loyihasi yakunlangan yilda O'zbekiston bozorida muvaffaqiyatli marketingni amalga oshirgan eng faol kompaniyalarga har yilgi ovoz berish va mukofotlar topshirishni o'zida aks ettiradi. Mukofotning vazifasi - mahalliy bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan kompaniyalarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, tadbirkorlik sohasini, O'zbekiston marketing va reklama xizmatlari bozori infratuzilmasini rivojlantirishdan iborat.



Mukofot sovrindorlarini xizmatlar va tovarlar iste'molchilari, shuningdek Milliy marketing markazi a'zolari, hamkorlari va ekspertlari ovoz berish yordami-da aniqlab oldilar.

2021 yil 23 may kuni 24 ta toifa bo'yicha IV "2020 yil brendi" mukofoti g'oliblari nomi ma'lum qilindi va taqdirlash marosimi o'tkazildi.

Iste'molchilar va O'zbekiston Marketing Assotsiatsiyasi ekspertlari tanlagan 48 ta eng yaxshi brend nomi e'lon qilindi. Xususan, oliy ta'lim muassasalari orasidan Qo'qon universiteti yil brendiga aylandi.

2021-yil 24-iyun kuni Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi Turizm masalalari bo'yicha vazirlarining VI yig'ilishiga bag'ishlangan nufuzli anjuman mehmonlarining Qo'qon universitetiga tashrifi bo'lib o'tdi



Davomi 2-betda

RIVOJLANISH YO'LIDAGI USTUVOR VAZIFALAR



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FAN, TA'LIM, SOG'LIQNI SAQLASH VA SPORT MASALALARI BO'YICHA MASLAHATCHISI ABDUJABAR ABDUVAXITOV QO'QON UNIVERSITETIGA TASHRIF BUYURDI

Nufuzli mehmon universitetda ta'lim sifati, professor-o'qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati, zamonaviy yo'nalishlarda ta'lim berilishiga e'tibor va talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan qiziqdi.

Tashrif davomida Prezident maslahatchisi tomonidan universitetning respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi yangilanishlarda yanada faol ishtirokini ta'minlash yuzasidan tavsiyalar berildi.



2021-YIL 24-IYUN KUNI TURKIY TILLI DAVLATLAR HAMKORLIK KENGASHI TURIZM MASALALARI BO'YICHA VAZIRLARINING VI YIG'ILISHIGA BAG'ISHLANGAN NUFUZLI ANJUMAN MEHMONLARINING QO'QON UNIVERSITETIGA TASHRIFI BO'LIB O'TDI

Qo'qon shahrida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo davlatlarning turizm masalalari bo'yicha vazirlarining VI yig'ilishi va Turizm bo'yicha ishchi guruhning XV yig'ilishi o'tkazildi. 2021-yil 24-iyun kuni Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi Turizm masalalari bo'yicha vazirlarining VI yig'ilishiga bag'islangan nufuzli anjuman mehmonlarining Qo'qon universitetiga tashrifi bo'lib o'tdi.

Mehmonlar Xo'qandi latifning azaliy mehmondo'stlik an'analari asosida ehtirom bilan kutib olindilar. Universitet maydonida turkiy davlatlarning milliy kiyimlari, kuy-qo'shiq va raqslari namoyishi yuqori martabali mehmonlarni mamnun etdi.

Tashrif davomida nufuzli mehmonlar universitetda yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishtirildilar.

Ushbu muhim tarixiy anjuman munosabati bilan kelajak

avlodlar uchun maxsus noma tayyorlanib, turkiy davlatlar vazirlari tomonidan imzolandi va universitetda barpo etilishi rejalashtirilayotgan "Tafakkur gulshani" nomli monumentning poydevoriga kapsulani joylashtirishdi.

Turkiy tilli davlatlar Turizm masalalari bo'yicha vazirlari bilan oliy ta'lim istiqbollari bo'yicha hamkorlik masalalarida suhbatlashildi. Tashrif davomida Hamkor davlatlar vakillariga ehtirom ramzi sifatida Qo'qon tarixiga bag'ishlab yozilgan bebaho asarlar va esdalik sovg'alari tufafa etildi.

Tashrif yakunida velosayr uyushtirilib, turkiy davlatlar vazirlari va anjuman mehmonlari mamnuniyat bilan ishtirok etdilar.

Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi yig'ilishi uchun aynan Qo'qon shahri tanlangani bejiz emas.

Turkiy kengashning ilk turizm poytaxti sifatida Turkiy dunyo va xalqlarining rivojlanishida o'zining alohida o'rniga ega, Ipak yo'li ravnaqiga muhim hissa qo'shgan Qo'qon shahri

nomlanuvchi kitoblar to'plami chop etilgan. Zero, kitoblar intellektual rivojlanish omili, xalqlar o'rtasida umumbashariy qadriyatlar almashinuvini ta'minlovchi ko'priq hamdir. Shu nuqtai



Turkiy kengash davlatlarining ilk **"Turizm poytaxti"** deb e'lon qilindi.

Kengashning asosiy maqsadi mehmondo'stlik sanoati – turizm aloqalarini mustahkamlash bo'lib, bu xalqaro turizmning tiklanishi va pandemiyaning sohaga ta'sirini kamaytirishda eng samarali usuldir.

Ma'lumki, turkiy tilli davlatlar o'rtasida madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlikni rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratib kelinayapti. Mazkur yo'nalish doirasida mamlakatimizda turkiy xalqlar adabiyotining nodir durdonalarini o'zida jamlagan – **"Turkiy adabiyot xazinasi"** deb

nazardan, Qo'qon universitetida turkiy tilli davlatlarning buyuk adiblari nomlari aks etgan **"Tafakkur gulshani"** monumentiga asos qo'yildi. Yoshlarni buyuk adiblar madaniy merosi, ilmrifati asosida tarbiyalash, ularni mutafakkirlarimizga chuqur ehtirom ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar yo'lida yaratilayotgan kitobsevarlikni targ'ib qiluvchi ushbu monumentda turkiy tilli davlatlarning buyuk adiblari va mutafakkirlari – **Nizomiy Ganjaviy, Abay Kunanbayev, Chingiz Aytmatov, Yunus Emro, Balint Balashshi, Alisher Navoiy va Imom Buxoriylar** nomi va asarlari aks etadi.



TALABALIK DAVRIM MENING, DAVRONLARNING ZO'RISAN!



Universitetda **21-may – "Xalqaro madaniyatlar xilmaxilligi va muloqot kuni"** munosabati bilan xalqimizning boy tarixi, o'ziga xos qadriyatlarini targ'ib etuvchi **"Milliy qadriyatlar va an'analar kuni"** o'tkazildi. Talabalar tomonidan xalq og'zaki ijodi, folklor san'ati, milliy hunarmandchilgimiz namunalari namoyish etildi, vodiy va vohalar milliy taomlari tayyorlanib, ha-

kamlar hay'atiga taqdim qilindi.

Xilma-xil madaniyatlar bayramida, ayniqsa talabalarning milliy chiqishlari barchaga manzur bo'ldi. Jonli ijrolar, askiya va payrovlar, raqslar barchaga bayram kayfiyatini ulashdi.

Talabalarning barcha chiqishlari va tayyorlagan milliy taomlariga baho berilib, turli nominatsiyalar bo'yicha g'oliblar munosib taqdirlandilar.



VATAN TAQDIRI - MENING TAQDIRIMDA

Qo'qon universitetida **"Vatan taqdiri - mening taqdirimda"** shiori ostida insholar tanlovi o'tkazilib, talaba-yoshlarga ona yurtga chin farzand sifatida mehlrlarini bayon etish imkoniyati yaratildi.

Mustaqilligimizning 30 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tanlovda **150 nafardan** ziyod talabalar ishtirok etib, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi maqsadlari va Vatan oldidagi burchlarini o'zbek, rus va ingliz

tillarida bayon etdilar.

Insholar tanloviga professor-o'qituvchilar va **O'zbekiston Qahramoni, faxriy pedagog Manzuraxon Madaliyeva, Xudoyorxon O'rdasida joylashgan Qo'qon madaniyati va tarixi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi, tarixnavis Muhammad Yaxyoxon Xo'qandiy** va uzoq yillar davlat boshqaruvi idoralarida faoliyat ko'rsatgan, **"34-Marg'ilon darvozasi" mahallasi raisi bo'lgan mehnat faxriysi**

Ibrohimjon Fozilovlar talabalarining ijodiy ishlarini baholashda yaqindan ko'mak berdilar.

G'oliblarni taqdirlash tadbiri tashkil etilib, barcha insholarni o'qib chiqqan hakamlar hay'ati a'zolari fikrni inshoda bayon etish o'ziga xos mahorat talab etishi, talabalarning insholari bilan tanishish jarayonida kelajakni ko'ruvchi siyosatchilar, bo'lajak shoir va yozuvchilar, jurnalistlar va haqiqiy vatanparvar yoshlar ko'z oldilarida namo-

yon bo'lganligini e'tirof etdilar.

Tanlovda **3-o'rinni olgan Maftuna Yunusova 500 ming so'm, 2-o'ringa sazovor bo'lgan talabalar Nilufar Husenova va Zumrad Keldiboyevalar 1 mln. so'm va 1-o'rinni egallagan Aziza Jo'rayeva 1.5 mln. so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi.**

Shuningdek, 14 nafar talabalar ham turli nominatsiyalar bo'yicha faxriy yorliqlar bilan taqdirlandilar.



FAN – TA'LIM – ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI



Qo'qon universitetida shahar prokuraturasi bilan hamkorlikda **"Moliyachi va tadbirkor - elga madadkor"** shiori ostida moliya sektori rahbarlari, shaharda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar, uyushmagan yoshlar va talabalar ishtirokida ochiq muloqot o'tkazildi.

Universitet rektori innovatsion-korporativ hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, talabalarining o'quv mashg'ulotlarini real ishlab chiqarish va moliya sektorlarida amaliyot bilan birgalikda olib borish va bu orqali tadbirkorlik sub'yektlari va moliya sektorining talab-istaklarini o'rganish, hamkorlikda ilmiy amaliy loyihalarni amalga oshirishga erishish hamda marketing tadqiqotlarini olib borish kabi istiqboldagi rejalar bilan tanishtirdi.

Qo'qon shahar prokurori, 2-sektor rahbari **Ulug'bek Hamdamov** tadbirkorlarga berilayotgan huquqiy imkoniyatlar va "1+1" modelini amalga oshirish istiqbollariga batafsil to'xtaldi.

Ochiq muloqotda ishtirokchilarga Qo'qon universitetining bugungi strategiyasi, universitet tomonidan ko'rsatiladigan IT xizmatlari, psixologik markaz, marketing, mehmonxona va turizm sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar yuzasidan taqdimotlar qilindi. Ochiq muloqotda banklar rahbarlari, tadbirkor va yoshlarning takliflari o'rganildi.

Shuningdek, talabalar amaliyoti bo'yicha uch tomonlama shartnomalar imzolandi. Uyushmagan yoshlar uchun tadbirkorlik sub'yektlariga sayohatlar tashkil etildi.

Maktabgacha ta'lim vaziri Agrippina Shin bilan uchrashuv



Maktabgacha ta'lim vaziri Agrippina Shin Qo'qon universiteti mas'ullari hamrohligida istiqboldagi rejalar va talabalar uchun yaratilgan zamonaviy sharoitlar bilan tanishdi.

Agrippina Shin viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmasi, shahar va tumanlar maktabgacha ta'lim bo'limlari rahbarlari, Qo'qon universiteti, QDPI professor-o'qituvchilari va maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari bilan uchrashib, soha ravnaqini ta'minlash masalalarida suhbatlashdi.

Uchrashuvda davlat va nodav-

lat MTTlarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash va bolalarni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash borasida hamjihatlikda amalga oshiriladigan vazifalar xususida so'z bordi.

Maktabgacha ta'lim vaziri Qo'qon shahar va atrof tumanlar MTTlarida ta'lim sifatini oshirish, kelgusida sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashga qaratilayotgan e'tibor va ibratli tashabbuslar uchun Qo'qon universiteti rahbariyatiga alohida minnatdorchilik bildirdi.



Talabalarining buxgalteriya hisobi bo'yicha savodxonligi oshirildi

Qo'qon universiteti rahbariyati tashabbusi bilan tajribali mutaxassis, **PhD G'olibjon Quvvatov** trenerligi ostida maxsus kurs faoliyati yo'lga qo'yilib, talabalarga buxgalteriya operatsiyalari noldan balansgacha o'r-

gatildi.

Talabalar to'garakda ma'lum kompaniyaning ma'lumotlarini buxgalteriya hujjatlarida aks ettirish, ish haqini hisoblash va boshqa kerakli operatsiyalarni qiziqish bilan o'rgandilar.

Universitet rektori tomonidan kursni muvaffaqiyatli tamomlagan **38 nafar talabaga** sertifikatlar topshirdi.



TIBBIY TAYYORLOV KURSINING SAMARASI



Qo'qon universitetida hamshiralar tayyorlandi

Qo'qon universiteti, Qo'qon shahar Tibbiyot birlashmasi va Tibbiyot kasb-hunar kolleji hamkorligida talaba-qizlar uchun **"Sog'lom turmush tarzi va tibbiy tayyorlov kursi"** tashkil etildi. 41 nafar talaba-qiz kurs mashg'ulotlaridagi bilimlarni yaxshi o'zlashtirganliklarini amalda ko'rsatib berdilar.

Rektor Sherzod Mustafakulov shahar Tibbiyot birlashmasi va Tibbiyot kasb-hunar kolleji rahbariyatiga hamkorlik uchun



BIZNES MARAFON

QO'QON UNIVERSITETIDA



Biznes marafonda:

O'zbekistonning yetakchi tadbirkorlari - reklama mahsulotlari va biznes sovg'alari tayyorlash sohasida iste'molchilarga har doim katta tanlovni taqdim etib kelayotgan **"Dekos.uz"** kompaniyasi va **"M Faktor"** loyihasi asoschilari **Hasan va Husan Mamasaidovlar** Qo'qon universitetida "Biznes marafon" mehmoni bo'ladilar.

Shuningdek, **Laziz Adhamov** - Skolkovo biznes maktabi bitiruvchisi, **SAP O'zbekiston** sotuvlar bo'yicha direktori, IT targ'ibotchisi va vizioner, **"Top-contact"** va **"Bookcafe"** biznes loyihalari asoschisi hamdir.

Yana bir mehmon - O'zDJTU va Fransiyaning siyosiy tadqiqotlar instituti xalqaro siyosiy munosabatlar fakultetini tamomlagan **Feruzbek Allayev**dir. U 2014 yili elektron tijorat sohasida o'z biznesiga asos solgan. Ayni paytda **asaxiy.uz** O'zbekistondagi eng mashhur elektron savdo maydonchasiga aylangan. Bugungi kunda platformada 15 000 xildan ziyod mahsulotlar - maishiy texnika, elektronika vositalari, kompyuter jihozlari, smartfon, gadjet va boshqa mahsulotlar savdosi amalga oshiriladi.

Skolkovo boshqaruv maktabining transformatsion kursi tinglovchisi, xalqaro miqyosda tajribali mutaxassis **Hikmat Abdurahmonov** ham biznes marafon mehmoni bo'ldi. U **"HM Partners"** guruhi doirasida kichik va o'rta biznes uchun maxsus xizmatlar ko'rsatuvchi qator

Biznes marafonda **"Najot ta'lim"** o'quv markazi asoschisi va **Osmondagi bolalar youtube** kanali admini **Temurbek Adhamov**, **"Cambridge learning center"** o'quv markazlari tarmog'i asoschisi, muvaffaqiyatli yosh tadbirkor **Jahongir Po'latovlar** ham ishtirok etdilar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi **Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev**, O'zbekiston **yoshlar tadbirkorli-**

Qo'qon universitetida motivatsion trening start oldi.

Alisher Sa'dullayev o'z muvaffaqiyati sirlarini talabalar bilan o'rtoqlashdi va muhim hayotiy tavsiyalar berdi.

Biznes marafonda, ishtirokchilarga biznesda yuksak maralarni zabt etish, mehnat, shijoat bilan muvaffaqiyatli tadbirkor bo'lish sirlari, biznes va tadbirkorlik faoliyati uchun zamin yaratuvchi **"oltin qoida"**lar, O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar

bo'yicha ma'lumotlar berildi va talabalarni **"oltin davr"** dan unumli foydalanishga undadilar.

Spikerlar zamonaviy kasblar va media sohasidagi yangiliklar, maqsad qo'yish, o'qish va ishni bir paytda olib ketish, biznesni sifatli va xarajatsiz o'rganish bo'yicha mahorat darslarini o'tkazdilar.

Trening orqali yoshlarning tadbirkorlik sohasidagi bilimlari mustahkamlandi, tanikli tadbirkorlar bilan muloqot qilib, savollariga javob olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.



Biznes marafon

kompaniyalar, xususan O'zbek-Xitoy Savdo Uyi, CLG lizing va CLG Auto, Business Laboratoriyasi media loyihasi, GroundZero 2 filialdan iborat O'zbekistondagi yetakchi kovorking markazi asoschisidir. U shuningdek, **AMBIT** raisi, **GENning** O'zbekistondagi direktoridir.

gini qo'llab-quvvatlash markazi direktori Mexroj Rashidov, shahrimiz tadbirkorlari, universitet professor-o'qituvchilari, talaba va yoshlari qatnashdilar.



VODIY YOSHLARI – “TECHNOWAYS” TEXNOLOGIK RIVOJLANISH MARAFONIDA

“TechnoWays” texnologik rivojlanish marafoni yoshlarni bir maqsad yoʻlida birlashtirdi

Qoʻqon universitetida 7-10-iyun kunlari ilk bor Oʻzbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi bilan hamkorlikda **“TechnoWays” texnologik rivojlanish marafoni**ning hududiy bosqichi oʻtkazildi. Marafonda Andijon, Fargʻona va Namangan viloyatlaridagi 16 ta oliy taʼlim muassasasining 75 nafar iqtidorli talabalari ishtirok etdilar. Ular kelgusida mamlakatimizda ilm-fan va texnika taraqqiyotini bir pagʻona yuksaltiradigan 20 ta aktual loyiha va gʻoyalarni munosib himoya



qildilar.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 aprelidagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boʻyicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PF-6198-son Farmoniga muvofiq va ijtimoiy, maʼnaviy-maʼrifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yoʻlga qoʻyish boʻyicha 5 ta muhim tashabbus doirasida oʻtkazilgan marafonda yoshlarning texnologik bilimlarini oshirish, ularga startaplarni gʻoyadan prototip holatigacha olib chiqish va akseleratsiyasini amalga oshirish boʻyicha amaliy koʻmak berishga eʼtibor qaratildi.

Innovatsion rivojlanish vazirligining eng yetakchi mutaxassislaridan iborat mentorlar jamoasi toʻrt kun davomida iqtidorli yoshlarning loyihalarini yanada takomillashtirish, startaplari va innovatsion loyihalar tanlovlarida ishtirok etishlari hamda vazirlik huzuridagi Yoshlar akademiyasiga aʼzo boʻlishlariga koʻmaklashdilar.

Marafon yoshlarning ilmiy festivaliga aylanib ketdi.

Hududiy loyihalar koʻrgazmasi tashkil etildi

Marafon doirasidagi koʻrgazmada vodiyni oliy oʻquv yurtlari talabalari va talaba boʻlmagan yoshlar ham innovatsion, texnologik, ilmiy, startap loyiha va ishlanmalari bilan ishtirok etishdi.

Ushbu koʻrgazmada saralab olingan ishlanmalar mualliflari Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi tomonidan har yili kuz oylarida oʻtkaziladigan InnoWeek xalqaro innovatsiyalar haftaligida ishtirok etish imkoniyatini qoʻlga kiritdilar.

Treninglar qiziqarli oʻtdi

Marafon ishtirokchilari uchun **“Yaproq Eco textile” MChJ** rahbari **Ilhom Madaminov** “Bosib oʻtilgan yoʻl, maqsad qoʻyish” mavzusida trening oʻtkazdi.

Shuningdek, marafon ishtirokchilari uchun psixologik tre-

ning ham tashkil etildi. **Lider kim? Liderlikka tayyorlik nimalarda namoyon boʻladi? Jamoa bilan ishlashda ijobiy muhit qanday yaratiladi?** Qoʻqon universitetining Psixologik xizmat koʻrsatish markazi rahbari, dotsent **Nigora Shomurodova** spikerligida oʻtkazilgan motivatsion treningda yoshlar shu kabi savollarga batafsil javoblar oldilar.

Marafon ishtirokchilari uchun tarixiy obidaga sayohat uyushtirildi

Talaba-yoshlar uchun Qoʻqon shahridagi muhtasham tarixiy obidalardan biri – **Xudoyorxon oʻrdasi** bilan tanishish imkoniyati yaratildi. Tashqi qalʼa, oʻrta saroy, bogʻ va ichki saroylardan iborat boʻlgan yirik saroy inshootining bunyod etilish tarixi haqida maʼlumotlar berildi.

Ayniqsa, Oʻrdada joylashgan Qoʻqon madaniyati va tarixi davlat muzeyi eksponatlari vodi yoshlarida katta qiziqish uygʻotdi.

Koʻngilochar dasturlar yoshlar orasida doʻstona muhit yaratdi

Marafon ishtirokchilarining boʻsh vaqtlarini mazmunli oʻtkazish maqsadida Qoʻqon universitetining professor-oʻqituvchilari, iqtidorli talabalaridan shakllantirilgan volontyorlar jamoasi tomonidan flashmob va qiziqarli oʻyinlar tashkillandi. **AZXX brendi** bilan hamkorlikda ice-cream party otkazildi. Raqslar guldastasi, jonli kuy-qoʻshiqlar, kliplar va energizer, yaʼni faollashtiruvchi oʻyinlar namoyishi barchada katta taassurot qoldirdi.

Quiz fest, yaʼni ingliz tilida boʻlib oʻtgan **“Zakovat”** bellashuvda yoshlarning aqliy salohiyati sinovdan oʻtkazildi. 10 ta jamoaga qiziqarli, ilmiy, tarixiy va mantiqiy savollar berildi. **“Andijon team”** jamoasi zakovat bellashuvi gʻolibi boʻldi.

Barcha jamoalar oʻzlarining kreativ va innovatsion ilmiy loyihalari va besh yilga moʻljallangan strategiyalarining taqdimotini oʻtkazdilar. Ushbu shart ishti-

rokchilar uchun hal qiluvchi pal-la oldidan oʻziga xos tayyorgarlik vazifasini oʻtadi.

Sport sogʻlomlashtirish tadbirlari oʻtkazildi

Qoʻqon universitetida yangi bunyod etilgan sport maydonchalarida besh muhim tashabbus doirasida yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sogʻlom turmush tarzini targʻib qilishga qaratilgan tadbirlar oʻtkazilyapti.

Jumladan, futbol, voleybol, basketbol, badminton va stol tennisi boʻyicha musobaqalar yoshlar faolligi ostida oʻtdi. Shashka musobaqasida Qoʻqon universiteti talabalari **Xojiakbar Neʼmatjonov** va **Muslima Aminovalar** ustunliklarini namoyish qilishdi. Badminton boʻyicha musobaqada 20 nafar ishtirokchi oʻrtasida universitetimiz talabasi **Rashod Oxunov** gʻolib boʻldi. Futbol va voleybol va kibersport bellashuvlari ham murosasiz, qizgʻin vaziyatlarga boy oʻtdi.

Velosayr koʻtarinki ruhda oʻtdi

Shahar boʻylab velosayrda Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi vakillari, Qoʻqon universiteti rektori Sherzod Mustafakulov, Qoʻqon shahar hokimi Maʼrufjon Usmonov va sektorlar rahbarlari, texnologik rivojlanish marafoni-da ishtirok etayotgan vodi yoshlari oshirish, keng jamoatchilik qatnashdilar.

AZXX brendi hamkorligida oʻtkazilgan velosayrni shahar koʻchalarida aholi xursandchilik bilan kuzatdi. Velosayr aholi va yoshlar orasida sogʻlom turmush tarzini keng targʻib etish, velosiped sport turini yanada ommalashtirishga xizmat qildi.

“Indorama Kokand tekstil” korxonasi faoliyati oʻrganildi

Marafon doirasida ishtirokchilar uchun Oʻzbekistondagi eng yirik kalava-ip ishlab chiqaruvchi xorijiy qoʻshma aksionerlik jamiyatiga sayohat uyushtirildi. Talabalar bir kunda 100 tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega korxonaning oʻn bosqichdan iborat ishlab chiqarish jarayonlari bilan yaqindan tanishdilar.

Korxona faoliyati misolida talaba-yoshlar koʻp tarmoqli biznes va HR, yaʼni inson resurslarini samarali boshqarish yuzasidan bilimlar oldilar. Qoʻshma korxonaning ishdagi mukammallik va barqarorlik tamoyillari, tadbirkorlik, hamkorlik, innovat-

siya va puxta bilim kabi qadriyatlar, odamlar va mijozlar mamnunligiga qaratilgan shiorlari talaba-yoshlarda qiziqish uygʻotdi.

“TechnoWays” texnologik rivojlanish marafoni gʻoliblari taqdirlandilar

Taqdirlash marosimi Innovatsion rivojlanish vaziri **Ibrohim Abdurahmonov**, Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi direktori **Olimjon Toʻychiyev**, Qoʻqon shahar hokimi **Maʼrufjon Usmonov**, vodi y oliy oʻquv yurtlari rektorlari va prorektorlari hamda iqtidorli talabalari ishtirokida oʻtdi.

Qoʻqon universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori **Sherzod Mustafakulov** besh muhim tashabbus doirasida mazmunli oʻtgan marafon bir gʻoya bilan kelgan iqtidorli yoshlarga toʻrt kun davomida oʻzaro bilim almashib, har birlarining 75 gʻoya bilan “qurollanishlari”ga xizmat qilganligi, oʻz navbatida bu yoshlar oliy oʻquv yurtlari va mahallalarida ham marafonda olgan bilim, koʻnikmalarining targʻibotchilari boʻlishlari kerakligini taʼkidlab oʻtdi.

Taqdirlash marosimida Innovatsion rivojlanish vaziri **Ibrohim Abdurahmonov** talaba-yoshlarning oʻzlariga boʻlgan ishonchlarini oshirish, ularda qobiliyat va gʻoyalarni erkin namoyish qilish koʻnikmasini shakllantirish kerakligini alohida taʼkidladi.

Qoʻqon universitetida yuqori saviyada oʻtkazilgan texnologik rivojlanish marafonining “Qoʻqon tajribasi” Innovatsion rivojlanish vazirligi gʻoyalar bankiga katta

ulush qoʻshgani eʼtirof etildi.

6 ta jamoa tomonidan ilgari surilgan loyihalar **“Eng yaxshi dasturiy taʼminot”** va **“Eng yaxshi texnologik yechim”** nominatsiyalarida gʻoliblikni qoʻlga kiritdi.

Gʻoliblarga **10 mln., 20 mln. va 30 mln. soʻmlik vaucherlar** taqdim etildi va **“Boʻlajak olim”** tanlovida ishtirok etishga tavsiya berildi. Eng quvonarlisi, Qoʻqon universitetining moliya yoʻnalishi 1-kurs talabalari

2-oʻrinni qoʻlga kiritib, 20 mln. soʻmlik vaucher bilan taqdirlandilar. Texnologik rivojlanish marafoni iqtidorli yoshlarga innovatsion loyihalarni yaratish uchun bilim va koʻnikmalar berishga xizmat qildi.

Albatta, kelajakda mana shunday yuqori formatdagi tadbirlarni tashkil etish talaba-yoshlar oʻrtasida startup gʻoya va innovatsion loyihalarni rivojlantirishga katta turtki boʻladi.

